Аннотация. В данной статье были проанализированы методы реализации маркетинговых стратегий на предприятиях общественного транспорта. В ходе исследования изучено влияние сегментации рынка, комплекса маркетинга 7P, управления качеством услуг, цифровых коммуникационных каналов и платформ MaaS на эффективность транспортных услуг. На основе международного опыта и данных UITP, ITF-OECD и Всемирного банка были обобщены современные подходы к маркетингу в общественном транспорте. Результаты анализа подтвердили положительное влияние маркетинговых стратегий на удовлетворённость пассажиров, качество обслуживания и уровень использования транспортных услуг. Установлено, что процессы модернизации системы общественного транспорта Узбекистана создали важную институциональную основу для практического применения маркетинговых подходов.

Ключевые слова: общественный транспорт, маркетинговая стратегия, комплекс маркетинга 7P, качество услуг, удовлетворённость пассажиров, цифровые коммуникации, MaaS, сегментация рынка, транспортный маркетинг, мобильность.

Abstract. This article analyzed methods for implementing marketing strategies in public transport enterprises. The study examined the impact of market segmentation, the 7P marketing mix, service quality management, digital communication channels, and MaaS platforms on transport service efficiency. Modern approaches to public transport marketing were generalized based on international experience and data from UITP, ITF-OECD, and the World Bank. The findings confirmed that marketing strategies positively influenced passenger satisfaction, service quality, and the level of transport service usage. The study also identified that the modernization processes of Uzbekistan's public transport system created an important institutional foundation for the practical implementation of marketing approaches.

Keywords: public transport, marketing strategy, 7P marketing mix, service quality, passenger satisfaction, digital communication, MaaS, market segmentation, transport marketing, mobility.

KIRISH

Globalashuv jarayonlari va shaharlar aholisining jadal o'sishi yo'lovchi tashish bozorida raqobat strukturasi sezilarli ravishda murakkablashtirdi. Jamoat transporti operatorlari uchun xizmat ko'rsatishning marketingga asoslangan modeli sektor barqarorligini ta'minlovchi muhim omilga aylandi. Xalqaro jamoat transporti uyushmasi (UITP)ning 2024-yilgi iqtisodiy istiqbol hisobotida operatorlarning 83 foizi 2023-yilga nisbatan yo'lovchilar oqimining o'sishini kutgani qayd etildi [1]. Bu indikator xizmatlarning bozor jozibadorligini oshirishga qaratilgan boshqaruv qarorlari va strategik marketing yondashuvlarining samaradorlik potensialini aks ettiradi.

Shahar mobilligining yangi davri jamoat transportini avtomobil egaligiga oqilona alternativa sifatida



pozitsionerlash zaruriyatini keltirib chiqardi. UITPning global shahar mobilligi indikatorlari ma'lumotlariga ko'ra, 50 dan ortiq yirik shaharlarda 2023-yilgi metro tarmoqlari yo'lovchi oqimi 2019-yilgi ko'rsatkichlarning 93 foizigacha tiklandi [2]. Yo'lovchilarning ehtiyojlari tarkibi o'zgaruvchanligi, raqamli ekotizimning kengayishi va Mobility as a Service (MaaS) modellarning yuksalishi sektor strategiyalarini qayta ko'rib chiqishga undamoqda [3].

O'zbekistonda jamoat transporti tizimi modernizatsiyasiga yo'naltirilgan keng ko'lamlı tizimli o'zgartirishlar amalga oshirilmoqda. Toshkent shahri jamoat transportini rivojlantirish konsepsiyasi avtobus parkini yangilash, marshrut tarmog'ini takomillashtirish va metro liniyalarini kengaytirishni nazarda tutdi [4]. Toshkent shahri va viloyati uchun ishlab chiqilgan jamoat transportini rivojlantirish yo'l xaritasi sektor islohotlarini qisqa va o'rta muddatli choralar majmuasida birlashtirdi [5]. Mavjud strategik vaziyatda marketing yondashuvlarining korxonada darajasida samarali joriy etilishi bozor jihatlari mustahkamlashga va xizmatlardan foydalanish ko'lamini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi jamoat transporti korxonalarida marketing strategiyalarini amalga oshirish usullarini nazariy umumlashtirish va xalqaro tajriba asosida ularning amaliy qo'llanish chegaralarini aniqlashdan iborat bo'ldi. Ish nazariy tahlilning amaliy yo'naltirilgan natijalarini taqdim etadi va sektor rahbariyatining strategik qarorlar qabul qilish bosqichlari uchun konseptual asos vazifasini bajaradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jamoat transportida marketing nazariyasining tizimli rivojlanishi 1970-yillarning o'rtalariga to'g'ri keldi. Hutchinson tomonidan ishlab chiqilgan shahar yo'lovchi transporti marketing strategiyasini shakllantirish konsepsiyasi marketing kompleksi va segmentatsiya tamoyillarini sektor xususiyatlariga moslashtirdi [6]. Mualliflik modelida xizmat atributlari - narx, sayohatga sarflanadigan vaqt, marshrut zichligi, qatnov chastotasi, ishonchlilik va qulaylik - hamda promotsiya kombinatsiyasiga asoslanuvchi ikki o'lchovli marketing kompleksi taklif qilindi. Sayohat maqsadlari (ish, xarid, dam olish hamda ijtimoiy harakatlar) bo'yicha segmentatsiya yondashuvi keyingi tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Xizmatlar marketing kompleksining kengaytirilgan 7P modeli (Product, Price, Place, Promotion, People, Process, Physical Evidence) jamoat va kommunikatsiyaviy transportda xizmat sifati va mijozlar sodiqligini boshqarishning kompleksli vositasi sifatida tan olindi. Transport korxonalarida o'tkazilgan empirik tadqiqotda 7P modelining barcha komponentlari mijozlar sodiqligiga ijobiy va statistik ahamiyatli ta'sir ko'rsatgani aniqlandi, regressiya modelining tuzatilgan determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,890$ darajasida belgilandi [7]. Fizik dalillar (physical evidence) komponentining yuqori ta'sir ko'rsatkichi xizmat ko'rsatish muhitining yo'lovchi qarorlariga bevosita aloqasini namoyon etdi.

Jamoat transporti tashkilotlari uchun marketing kommunikatsiya strategiyalari modeli raqamli transformatsiyaning sektor uchun yangi imkoniyatlarini umumlashtirdi [8]. Veb-saytlar, mobil ilovalar, elektron pochta marketingi, real vaqt rejimidagi xabarnomalar, ijtimoiy media va virtual yordamchi sifatidagi chatbotlar transport bizneslari operatsiyalarining ajralmas qismi sifatida tan olindi. Modelning konseptual qiymati yo'lovchilar bilan ko'p kanalli aloqaning rivojlanish vektorlarini aniqlashda yaqqol ko'rinadi.

Xizmat sifati va yo'lovchi mamnuniyati o'rtasidagi munosabatlar sohasidagi keng adabiy sharh rivojlanayotgan mamlakatlarda 2000-yildan keyin chop etilgan 104 ta retsenzlangan tadqiqotni qamrab oldi. Sistematik tahlilda xavfsizlik, qulaylik, ishonchlilik va foydalanish imkoniyati xizmat sifatining asosiy belgilovchi omillari sifatida ajratildi [9]. Mualliflar yo'lovchilar mamnuniyati va yangi foydalanuvchilarni jalb qilish qobiliyati xizmat sifati darajasiga bevosita bog'liqligini empirik dalillar asosida asoslashdi.

Niche marketing yondashuvi jamoat transportida noan'anaviy bozor segmentlarini rivojlantirish strategiyasi sifatida e'tirof etildi. Sayohat vaqti, premium xizmatlar, narx va muqobil faoliyatlar bilan bog'liq to'rtta asosiy niche tipi ajratildi, ularning sektordagi qo'llanishi turli misollarda ko'rsatildi [10]. Strategiyaning tizimli amaliy joriy etilishi sayyohlik va dam olish maqsadidagi sayohatlar segmentida yo'lovchilar oqimini oshirish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Adabiyot manbalarining tahliliy umumlashtirilishi jamoat transportida marketingning konseptual evolyutsiyasi an'anaviy marketing miksdan tortib raqamli platformaviy yondashuvlarga rivojlanish bosqichlarini qamrab olganini ko'rsatadi. Bu nazariy zamin amaliy strategiyalarning korxonada darajasida amalga oshirilishi uchun keng vositalar palitrasini taqdim etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda jamoat transporti korxonalarida marketing strategiyalarini amalga oshirish usullarini o'rganishda nazariy va taqqoslama tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini UITP, ITF-

OECD, Jahon banki hisobotlari hamda jamoat transporti marketingiga oid xalqaro ilmiy maqolalar tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida marketing strategiyalarining xizmat sifati, yo'lovchi mamnuniyati va transport xizmatlaridan foydalanish darajasiga ta'siri tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi.

Bozor segmentatsiyasi, 7P marketing kompleksi, raqamli kommunikatsiya kanallari va MaaS platformalarining amaliy qo'llanishi muqoyasa usuli orqali baholandi. Xalqaro tajriba va O'zbekiston jamoat transporti tizimidagi islohotlar o'rtasidagi bog'liqlik sintez usuli asosida umumlashtirildi. Tahlil davomida marketing strategiyalarining korxonalar faoliyati samaradorligi va xizmatlar raqobatbardoshligiga ta'siri konseptual jihatdan yoritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari jamoat transporti korxonalarida marketing strategiyalarining beshta asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshirilishini ochib beradi: bozor segmentatsiyasi, marketing kompleksining moslashuvi, kommunikatsiya kanallari boshqaruvi, brend pozitsionerlashi va raqamli platforma integratsiyasi. Bu yo'nalishlar o'zaro bog'lanish mantig'iga ega bo'lib, ketma-ket joriy qilinishi sinergetik natija beradi.

Bozor segmentatsiyasi yondashuvi jamoat transporti talabining bir xil emasligini hisobga olishga asoslandi. Hutchinson konsepsiyasiga binoan, sayohat maqsadi (ish, xarid, dam olish) bo'yicha asosiy uchta segment ajratiladi, ularni manba-manzil va shaxsiy avtomobil mavjudligi omillari bilan kengaytirib, 24 katakli matritsada strukturalash mumkin [6]. Talab elastikligini empirik o'rganish ish sayohatlari uchun narx omillariga nisbatan elastiklikning eng past darajasini ko'rsatdi. Bu xulosa narx siyosatining tabaqalashtirilgan yondashuvini taqozo qiladi va segmentlarga moslashtirilgan tariflar tizimi uchun konseptual asos beradi.

Moskva metropoliyasi yer usti jamoat transporti xizmatlarini iste'molchilar tomonidan qabul qilingan sifat asosida baholash bo'yicha 1517 respondent ishtirokida o'tkazilgan tadqiqotda yo'lovchi mamnuniyatiga ta'sir ko'rsatuvchi 32 ta atribut aniqlandi va CHAID qaror daraxti metodi orqali turli mamnuniyat darajalariga ega segmentlar belgilandi [11]. Tipologik tahlil natijalari marketing kompleksining narx, joylashuv va xizmat sifati o'lchamlarini segmentga moslashtirish zaruriyatini namoyon etdi. Bunday yondashuv operatorlar uchun mijozlar bazasini differensiyalashgan marketing dasturlari orqali kengaytirish imkoniyatini yaratdi.

Ningbo shahrida (Xitoy) 5046 ta avtobus va 1682 ta temir yo'l transporti so'rovnomalari asosida o'tkazilgan kompleks tadqiqotda 2019-yilda jamoat transportidan umumiy yo'lovchi mamnuniyati 91,2 ballni tashkil etgani belgilandi [12]. AHP-EWM-FCE modelining qo'llanilishi ko'p rejimli jamoat transporti tizimida yo'lovchilarning xizmatga bo'lgan idrok darajasini obyektiv miqdoriy baholash imkonini berdi. Bu metodologiya marketing strategiyasining samaradorligini izchil monitoring qilish vositasi sifatida amaliy ahamiyatga ega.

Marketing kommunikatsiya strategiyalari raqamli transformatsiya sharoitida sektorning bozor o'rnini mustahkamlashning markaziy vositasiga aylandi. Veb-platformalar, mobil ilovalar, real vaqt rejimidagi yangilanishlar, ijtimoiy media va chatbot texnologiyalari transport bizneslari uchun ko'p kanalli aloqa ekotizimini shakllantirdi [8]. Toshkent jamoat transporti tizimida elektron chiplarga asoslangan to'lov tizimi va onlayn marshrut rejalashtirish ilovalarining joriy etilishi kommunikatsiya kanallarini zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirdi [4]. Bu instrumental tayanch yo'lovchi mamnuniyatining sezilarli oshishiga olib keladigan platforma vazifasini bajaradi.

Mobility as a Service (MaaS) konsepsiyasi turli transport rejimlarini yagona raqamli interfeysda integratsiyalash orqali yo'lovchilarga manzilgacha sayohatni rejalashtirish, chiptalarni xarid qilish va to'lovni amalga oshirish imkonini beradi [3]. ITF-OECDning maxsus tadqiqotida MaaS jamoat hokimiyati institutlari uchun raqamli bozorni boshqarishning yangi instrumenti sifatida ko'rib chiqildi, biroq u jamoat transportining bazaviy ahamiyatini saqlab qoldi [15]. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun olib borilgan tahlil MaaS amaliyotini joriy etish ochiq ma'lumotlar infratuzilmasiga sarmoya kiritishni va operatorlar o'rtasidagi institutsional hamkorlikni talab qilishini ochib berdi (1-jadval).

1-jadval

Jamoat transporti korxonalarida marketing strategiyalarini amalga oshirish usullari va ularning amaliy qo'llanish doirasi.

Strategik yondashuv	Asosiy elementlar	Amaliy qo'llanish doirasi	Manba
Bozor segmentatsiyasi	Sayohat maqsadi, manba-manzil, shaxsiy avtomobil mavjudligi	Marshrut tarmog'i va narx siyosatini moslashtirish	[6]
7P marketing kompleksi	Mahsulot, narx, joy, siljitish, xodimlar, jarayon, fizik muhit	Mijozlar sodiqligini boshqarish va xizmat sifatini oshirish	[7]
Marketing kommunikatsiyalari	Veb-sayt, mobil ilova, ijtimoiy media, chatbot	Yo'lovchilar bilan ko'p kanalli aloqani ta'minlash	[8]




Xizmat sifati boshqaruvi	Xavfsizlik, qulaylik, ishonchlilik, foydalanish imkoniyati	Yangi yo'lovchilarni jalb qilish va sodiqlikni mustahkamlash	[9]
Niche marketing	Sayohat vaqti, premium xizmatlar, narx, muqobil faoliyatlar	Maxsus segmentlarni rivojlantirish	[10]
MaaS integratsiyasi	Marshrut rejalashtirish, chiptalar, to'lov tizimi	Multimodal harakatchanlikning yagona platformasi	[3]

UITPning 2024-yilgi global iqtisodiy istiqbol hisobotida operatorlar uchun byudjet o'sishining 2-10 foizli oraliqda kutilishi qayd etildi [1]. Bunday moliyalashtirish dinamikasi raqamli kanallarga, integratsiyalashgan biletlash tizimlariga va kontaktsiz to'lov yechimlariga investitsiyalarni mustahkamlashga imkon yaratdi. Sektor moliyalashtirishning barqarorligi marketing strategiyalarining uzoq muddatli amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitni ta'minlaydi. UITPning 30 ta shahar bo'yicha 2024-yilgi yo'lovchi oqimi monitoringi MENA mintaqasi jamoat transporti yo'lovchilar sonida yetakchi o'sish ko'rsatkichlarini, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi esa ikkinchi o'rinni qayd etdi [13]. Bu dinamika rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun marketing yondashuvlarining samaradorligi yuqori bo'lgan imkoniyat oynasini aks ettiradi.

O'zbekiston jamoat transporti sektorida amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari xalqaro tajribaga muvofiq strategik yo'nalishlarda rivojlanmoqda. Toshkent shahri jamoat transportidan foydalanish darajasini ikki barobarga oshirish maqsadi belgilanib, infratuzilma yangilanishi, marshrut tarmog'ining muvofiqlashtirilishi va metro liniyalarining kengaytirilishi bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar majmuasi ishga tushirildi [4]. Jahon banking Korea Green Growth Trust Fund tomonidan qo'llab-quvvatlangan tadqiqotida Toshkent va viloyati uchun qisqa muddatli ustuvor yo'nalishlar belgilanib, o'rta muddatli kengayish tashkilotlar orasida tizimli muvofiqlashtirishni nazarda tutdi [5].

ITF-OECDning Toshkent shahar mobilligini takomillashtirish rejasida transport ma'lumot tizimini rivojlantirishning marketing ahamiyati ta'kidlandi. Real vaqt rejimidagi ma'lumot tablolari, marshrut va yo'l xaritalari, transfer ma'lumotlari, navigatsiya tizimlari hamda barcha kategoriyadagi yo'lovchilar uchun moslashtirilgan ma'lumotnoma kanallari samarali marketing kommunikatsiyasi infratuzilmasining bazaviy elementlari sifatida ko'rib chiqildi [14]. Bu ma'lumot tizimi yo'lovchilar idrokining sifatini, ishonch va qulaylik darajasini sezilarli darajada oshirish potensialiga ega.

Tahlil natijalarining sintezi jamoat transporti korxonalarida marketing strategiyalarini amalga oshirishning to'rt qatlamli amaliy modelini shakllantirish imkonini berdi. Birinchi qatlamda strategik tahlil va segmentatsiya, ikkinchi qatlamda marketing kompleksining moslashtirilgan dizayni, uchinchi qatlamda kommunikatsiya kanallari portfeli boshqaruvi, to'rtinchi qatlamda raqamli platformalar va MaaS integratsiyasi joylashadi. Modelning vizual sxemasi 1-rasmda umumlashtirilgan tarzda taqdim etildi (1-rasm).



1-rasm. Jamoat transporti korxonasida marketing strategiyasini amalga oshirishning to'rt qatlamli modeli¹

1 Muallif ishlanmasi

Modelning amaliy qiymati uning ketma-ket bosqichlar shaklida joriy etilishi imkoniyatida namoyon bo'ladi. Birinchidan, korxonalar xizmatlar bozorini sayohat maqsadlari va yo'lovchi xulq-atvori segmentlari bo'yicha tahlil qiladi. Ikkinchidan, marketing kompleksining 7P elementlari aniqlangan segmentlarga moslashtiriladi. Uchinchidan, ko'p kanalli kommunikatsiya tizimi yo'lovchilarning ma'lumotga bo'lgan ehtiyojlarini real vaqt rejimida qondiradi. To'rtinchidan, raqamli platformalar va MaaS yechimlari operator xizmatlarini boshqa transport rejimlari bilan integratsiyalaydi.

Bunday kompleks yondashuvning amalga oshirilishi sektor barqarorligini va xizmatlar raqobatbardoshligini ta'minlovchi sinergetik samara beradi. Yo'lovchi mamnuniyatining oshishi takroriy foydalanish chastotasini va xizmatga sodiqlikni mustahkamlaydi, bu o'sish trayektoriyasi operator daromad tarkibining barqaror o'sish dinamikasini shakllantirishga ko'maklashadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jamoat transporti korxonalarida marketing strategiyalarini amalga oshirishning nazariy va amaliy tahlili sektor rivojlanishining bozor jihatlari mustahkamlash imkoniyatlarini ochib berdi. Xalqaro tajribani umumlashtirish va O'zbekiston transport tizimi konteksti bilan tutashtirish quyidagi xulosalarga kelishni mumkin qildi.

Birinchidan, jamoat transporti uchun marketing strategiyasi bir o'lchovli vositadan ko'p qatlamli boshqaruv tizimiga aylandi. Strategik tahlil va bozor segmentatsiyasi, kengaytirilgan 7P marketing kompleksi, ko'p kanalli kommunikatsiya hamda raqamli platforma integratsiyasi yagona konseptual freymvorkda birlashishi sektor xizmatlarining qadri taklifini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv yo'lovchi mamnuniyati va xizmatga sodiqligining empirik baholanishi orqali tasdiqlangan ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, raqamli kanallar va MaaS platformalari jamoat transporti operatorlarining bozor pozitsionlash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Mobil ilovalar, real vaqt rejimidagi xabarnomalar, chatbotlar va kontaktsiz to'lov yechimlari yo'lovchilarning xizmatdan foydalanish tajribasini sifat jihatdan o'zgartirdi. Operatorlar uchun raqamli infratuzilmaga investitsiyalar kelajakda raqobatbardoshlikning hal qiluvchi omillaridan biri sifatida o'rin egallaydi.

Uchinchidan, O'zbekiston jamoat transporti sektoridagi tizimli o'zgartirishlar marketing strategiyalarini xalqaro standartlar darajasida amalga oshirish uchun mustahkam institutsional zamin yaratdi. Toshkent shahri va viloyati uchun ishlab chiqilgan yo'l xaritasi, infratuzilma modernizatsiyasi va metro tarmog'ining kengaytirilishi sektorning bozor xizmatlari taklifini boyitish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar shakllantirildi. Korxonalar darajasida segmentatsiya markazlashgan ma'lumotlar bazasini shakllantirish, sayohat maqsadi, takror foydalanish chastotasi va demografik xususiyatlar bo'yicha yo'lovchilar profilini muntazam yangilab borish maqsadga muvofiq. Marketing kompleksining 7P elementlarini segmentlarga moslashtirilgan tabaqalashtirilgan paketlar shaklida loyihalash zarur. Raqamli kommunikatsiya kanallari portfeli uchun ko'p kanalli strategiyani ishlab chiqish hamda mobil ilovalar, ijtimoiy media va chatbotlarni yagona ekotizimda integratsiyalash tavsiya etiladi. Xizmat sifati boshqaruvi tizimini doimiy monitoring va yo'lovchi mamnuniyatining davriy o'lchovlari asosida takomillashtirish institutsional samaradorlikning kalitlaridan biri sifatida ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq. Operator darajasidagi marketing strategiyasini shahar va viloyat darajasidagi mobillik dasturlari bilan tizimli muvofiqlashtirish va MaaS integratsiyasi imkoniyatlarini faol o'rganish strategik ustuvorlik kasb etadi.

Tadqiqotning keyingi rivojlanish vektorlari O'zbekiston jamoat transporti operatorlarining marketing strategiyalarini empirik o'lchash, yo'lovchi xulq-atvori segmentlarini miqdoriy baholash va raqamli platformalarning bozor pozitsiyasiga ta'sirini ekonometrik modellashtirish bilan bog'liqdir. Sektor rivojlanishining strategik mantig'i marketing yondashuvlarining ilmiy asoslangan amalga oshirilishida o'z ifodasini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. UITP. 5 Key Public Transport Trends Revealed in Our Global Economic Outlook 2024. International Association of Public Transport. URL: <https://www.uitp.org/news/5-key-public-transport-trends-revealed-in-our-global-economic-outlook-2024/>
2. UITP. Explore Public Transport Data from 53 Cities Worldwide: Global Urban Mobility Indicators. International Association of Public Transport. URL: <https://www.uitp.org/news/public-transport-global-urban-mobility-data/>
3. Hensher D.A., Mulley C., Smith N. Mobility-as-a-Service and the role of multimodality in the sustainability of urban mobility in developing and developed countries. Transport Policy, 2024. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0967070X23002810>
4. Press Service of the President of the Republic of Uzbekistan. Development of Public Transport in Tashkent Discussed. URL: <https://president.uz/en/lists/view/4923>
5. World Bank Group, Korea Green Growth Trust Fund. Public Transport Improvement Roadmap for the Tashkent Region. 2024. URL: <https://www.wbkggtf.org/node/4254>



6. Hutchinson B.G. The formulation of marketing strategy in urban public transport. Transportation, Springer. URL: <https://link.springer.com/article/10.1007/BF00153576>
7. Nengsih S., Bachri N., Damrus, Maryana. Analysis of The Influence of the 7P Marketing Mix on Consumer Loyalty Shipping Services Company. ResearchGate, 2024. URL: https://www.researchgate.net/publication/379455589_Analysis_of_The_Influence_of_the_7p_Marketing_Mix_on_Consumer_Loyalty_Shipping_Services_Company
8. Nguyen N.P., Mogaji E. Marketing Communications Strategies for Public Transport Organisations. In: Public Sector Marketing Communications, Vol. I. Palgrave Macmillan, Cham, 2022. URL: https://link.springer.com/cha/pter/10.1007/978-3-031-07293-2_3
9. Pojani D. Scaling up public transport usage: a systematic literature review of service quality, satisfaction and attitude towards bus transport systems in developing countries. Public Transport, Springer, 2024. URL: <https://link.springer.com/article/10.1007/s12469-024-00367-6>
10. Weidmann U., Schoeneich M. Applying Niche Marketing Strategies to Improve Public Transport Service. ETH Zurich / ResearchGate. URL: https://www.researchgate.net/publication/228538557_APPLYING_NICHE_MARKETING_STRATEGIES_TO_IMPROVE_PUBLIC_TRANSPORT_SERVICE
11. Skorobogatykh I.I., Musatova Zh.B. Managing customer satisfaction with Metropolitan Public Transport Services based on perceived quality assessments. Journal of Eastern European and Central Asian Research (JEECAR), Vol. 9, No. 3, 2022. URL: <https://iecca.org/journal/index.php/JEECAR/article/view/789>
12. Yang J., Cheng C., Shen S., Yang S. Evaluation of passenger satisfaction of urban multi-mode public transport. PLOS ONE, 2020. URL: <https://journals.plos.org/plosone/article?id=10.1371/journal.pone.0241004>
13. UITP. Explore Ridership Data From 30 Cities Around the Globe: Global Mobility Trends. International Association of Public Transport. URL: <https://www.uitp.org/news/explore-ridership-data-global-mobility-trends/>
14. International Transport Forum (ITF-OECD). Urban Mobility Improvement Plan for Tashkent, Uzbekistan. 2019. URL: https://www.itf-oecd.org/sites/default/files/sipa_uzb_urban_mobility_improvement_plan_eng_0.pdf
15. International Transport Forum (ITF-OECD). Integrating Public Transport into Mobility as a Service. ITF Roundtable Report. URL: <https://www.itf-oecd.org/sites/default/files/docs/integrating-public-transport-maas.pdf>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100